



“DIPLOMATIYA” ASARIDA OTTO FON BISMARCK SIYOSATI: GENRI KISSINJER QARASHLARI

Ozodjonova Ruzikhon

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi talabasi

ruzikhonozodjonova4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Genri Kissinjerning “Diplomatiya” kitobida Otto fon Bismarkning tashqi siyosati haqidagi talqini batafsil ko'rib chiqiladi. Muallif Bismark diplomatiyasini kuchlar muvozanatini aniq hisoblab chiqish va vaziyatga mos keladigan siyosiy usullardan foydalanishga asoslangan usul sifatida tasvirlaydi. Bu usul Germaniyaning birlashish jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Maqolada Bismark diplomatiyasining afzalliklari orasida strategik moslashuvchanlik, manfaatlar asosidagi hamkorlik va siyosiy ehtiyotkorlik alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, Kissinjer tahlilida bu siyosatning zaif tomonlarini ham ochib beradi. Masalan, barqaror institutlar yetarlicha mustahkamlanmaganligi, siyosiy tizim kuchli shaxsiyatga bog'lanib qolganligi, uzoq muddatli xalqaro muvozanatni saqlashda murakkab muammolar yuzaga kelganligi shular jumlasidandir. Oxir-oqibat, maqola Bismark diplomatiyasini tarixiy jihatdan samarali, ammo murakkab va ikki tomonlama natijalarga olib keladigan siyosiy tajriba sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: Otto fon Bismark, Prussiya, Realpolitik, kuchlar muvozanati, diplomatik moslashuvchanlik, Germaniya birlashuvi, Vena tizimi.

KIRISH

Napoleon tomonidan boshlangan Vena tizimining parchalanishi XIX asrda Bismark tomonidan yakunlandi. Bismarkning siyosat olamiga kirib kelishi 1848-yilgi konservativ-liberal inqilobga qarshilikdan boshlangan. Kissinjer Bismark haqida Yevropada erkaklar uchun umumiy saylov huquqini birinchi bo'lib joriy



qilgan va hech kim taqlid qila olmagan keng ijtimoiy ta'minot tizimini yaratgan siyosatchi sifatida yozadi (Kissinger, H. A. 1994).

1848-yilda yangi parlament Prussiya qiroliga Germaniya imperatorlik tojini berishni taklif qilganda, Bismark qat'iy qarshi chiqqan edi, lekin oradan yigirma yil o'tmay u liberallik g'oyalariga zid ravishda, Prussiya kuchi bilan Germaniyani birlashtirib, o'sha tojni qirolga topshirgan. Bu jarayon xalqaro siyosatda raqobatni yanada kuchaytirgan, chunki 18-asrning kuchga asoslangan tamoyillariga qaytish kuzatilgan, ammo sanoat texnologiyasi va milliy resurslar tufayli endi vaziyat ancha xavfliroq holatga kelgan (Kenneth R. Krasner USMC 2015).

Bismarkning shaxsiyati kabi uning muvaffaqiyati ham kutilmagan edi. Oddiy, she'riyatni yaxshi ko'rgan, kundaligida hatto Bayronning she'rlaridan iqtiboslar keltirgan. Lekin boshqaruvda "Qon va temir" siyosatchisi sifatida tanilgan, Realpolitik tamoyillariga amal qilgan holda, kuchni nafaqat vosita, balki butun strategiya sifatida mohirona boshqargan.

Inqilobchilar faoliyati aosan kuch yetishmovchiligi bilan boshlashadi, va agar ular muvaffaqiyat qozonishsalar ham u mavjud tizinning samarasizligidan bo'ladi. Bismark ham shunday holatda vaziyatni to'g'ri baholab, xalqaro va ichki muvozanatlarni o'z foydasiga o'zgartira oldi. Uning faoliyati Metternix tizimi gullab-yashnayotgan davrda boshlangan, bu yerda Yevropa kuchlari muvozanati, Avstriya va Prussiya o'rtasidagi nemis ichki muvozanati, shuningdek konservativ qadriyatlar asosidagi ittifoqlar muhim rol o'ynagan

Bismarkning diplomatiyasi "Realpolitik" prinsipiga asoslangan bo'lib, u har qanday siyosiy hamkorlikni Prussiyaning milliy manfaatlariga moslashgan tarzda boshqarishga tayyor edi. U Avstriya bilan ittifoq tuzish, Rossiya yoki Fransiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish kabi imkoniyatlarni doimiy ravishda o'rganib, eng foydali variantni tanlardi. (Montgomery, J. D. (1975) Shu bilan birga, u ichki siyosatda ham konservativ qarashlardan voz kechmay, lekin milliy birlik va tashqi siyosiy maqsadlar yo'lida liberal qadamlar qo'ya olardi. Bu uning diplomatik moslashuvchanligi va strategik zukkoligini ko'rsatadi (Géré, F. 1995).



Bismarkning yutuqlari juda sezilarli bo'ldi. U Germaniyani birlashtirdi, Avstriyani Germaniya ichki siyosatidan chetlashtirdi va Fransiya bilan kelajakdagi mojarolarni xisoblab, Prussiya pozitsiyasini mustahkamladi (Kenneth R. Krasner USMC 2015). U Germaniya va Yevropadagi siyosiy muvozanatni tubdan o'zgartirib, davlatlararo munosabatlarni kuch va manfaatlar orqali shakllantirdi. Shu tarzda, u nafaqat ichki siyosatda, balki xalqaro maydonda ham mamlakatining mavqeini mustahkamladi (Rosecrance, R. 1974).

Bundan tashqari, Bismarkni nafaqat strategik va siyosiy mohir sifatida, balki “inqilobchi konservator” sifatida ham tavsiflash mumkin. Uning g'ayratli shaxsiyati va siyosiy qarashlari Germaniyaning milliy birligini ta'minlash va tashqi maydonda kuchli pozitsiyani saqlashga xizmat qildi. U ichki va tashqi ziddiyatlarni mahorat bilan boshqarib, ikki avlod davomida yechilmagan muammolarni hal qildi va Yevropaning siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirdi (Kissinger, H. A. 1994).

Biroq, Bismark diplomatiyasining kamchiliklari ham aniq edi. Uning yondashuvi ko'p jihatdan shaxsiy mahoratga tayanib qurilgani sababli, merosi barqaror institutlarga asoslanmadi, keyingi avlodlar uning murakkab strategik balansini davom ettira olmadi. U Realpolitik tamoyili asosida siyosiy qarorlarni qabul qilgani sababli, ichki demokratik institutlar va uzoq muddatli xalqaro muvozanat zaiflashdi. Masalan, parlamentning roli cheklangan holda, imperator va kanslarning hokimiyati kuchaytirildi, bu esa Germaniyada demokratiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Shuningdek, Bismarckning tashqi siyosiy yondashuvi ham uning o'zi boshqarib turgan paytda samarali bo'ldi, uning merosini davom ettirishga uringan avlodlar uchun esa siyosiy muvozanatni saqlash murakkab va xavfli bo'ldi (Rosecrance, R. 1974).

Bundan tashqari, ichki siyosatda Bismarckning qat'iy konservativ qarashlari, xususan “Kulturkampf” siyosati, siyosiy va diniy guruhlar o'rtasida keskinlikni kuchaytirdi va demokratik hamjihatlikni qiyinlashtirdi. Shu bilan birga, Realpolitik strategiyasi milliy va xalqaro maydonda doimiy ziddiyatlarni kuchaytirdi, uzoq muddatli barqarorlik uchun xavf tug'dirdi. Kissinjer ta'kidlaganidek - “Bismark o'z



jamiyatini strategik mahoratga moslab qo'ygan, biroq uni davom ettira oladigan institutlarni yaratolmadi", bu esa uning siyosiy merosini chekladi (Kissinger, H. A. 1994).

Xulosa

Otto fon Bismark Germaniyaning milliy birligini ta'minlash va mamlakatning xalqaro mavqeini mustahkamlashda noyob strategik mahorat namoyon etdi. Uning diplomatiyasi "Realpolitik" tamoyili asosida shakllanib, ichki va tashqi siyosatda shaxsiy mahorat va ziddiyatlarni boshqarish orqali samarali natijalarga erishdi. Biroq, bu yondashuvning salbiy tomonlari ham bor bo'lib ular barqaror institutlar yaratilmaganligi, demokratik tizimning cheklanganligi va uzoq muddatli xalqaro barqarorlikni xavf ostiga qo'yganlidir. Bismarkning merosi Germaniyaning kuchli davlatga aylantirdi, lekin uning strategiyasi faqat uning o'z shaxsiga mos bo'lib, keyingi avlodlar uchun davom ettirish qiyin bo'ldi. Shu bilan birga, Bismarkning ishlari va yondashuvlari nafaqat Germaniya tarixida, balki Yevropaning siyosiy tuzilmasida ham uzoq muddatli iz qoldirdi, kuch va siyosiy mahoratning murakkab uyg'unligini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kissinger, H. A. (1994). Diplomacy.
2. Kissinger, H. A. (1968). The White Revolutionary: Reflections on Bismarck. Daedalus, 97(3), 888–924. [<http://www.jstor.org/stable/20023844>] (<http://www.jstor.org/stable/20023844>)
3. Géré, F. (1995). Henry Kissinger. Diplomacy. Politique étrangère, 60(4), 1030–1034.
4. Rosecrance, R. (1974). Kissinger, Bismarck and the balance of power. Millennium, 3(1), 45–52.
5. Montgomery, J. D. (1975). The Education of Henry Kissinger. Journal of International Affairs, 49–62.
6. Kenneth R. Krasner USMC (2015). Coercive diplomacy: Otto von Bismarck and the unification of Germany. Normanby Press.